

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 3- «V» kurs talabasi**

Annageldiyeva Nargizaning

O‘zbek adabiyotini o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanidan

“KO‘RGAZMALILIK VA UNING TURLARI”

mavzusida tayyorlagan

MUSTAQIL ISHI

NUKUS – 2016

“KO‘RGAZMALILIK VA UNING TURLARI”

Reja

I.Kirish

II.Asosiy qism:

1. Adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning ahamiyati.
2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda ko‘rgazmalilik
3. Multimediya – ko‘rgazmalilik asosi

III.Xulosa

IV.Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralar, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borlikning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: kino, televideniye, musiqa, tasviriy san'at, shuningdek, tabiatdagi oddiy predmetlar ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi, shuningdek, adib yaratgan obrazlarning o'quvchi ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, magnitofon v.b. har bir maktabda mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi. Ayniqsa, hozirgi kunda deyarli har bir maktab bor bo'lgan kompyuter, ulangan bo'lsa, internet imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Qolaversa, mobil telefonlarning surat, lavha va ovoz yozish imkoniyatlari yuqoriki, undan istaganicha ko'rgazmalilik uchun oqilona foydanish mumkin.

Ko'rgazmalilik bilimlarning onglili va faol egallanishga yordam beradi. Ongda qayta ishlangan, kuylashda ongli va to'g'ri ifoda qilingan musiqa asarlari mustahkam egallanadi. O'quvchilarga tushunarli bo'lgan asarlar, ya'ni ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda tayyorgarlik darajasiga mos keladigan asarlar ongli o'zlashtirilishi mumkin. Sistemalashtirilgan bilim puxtaroq o'zlashtiriladi.

O'quv mavzularini o'zlashtirishning mustaxkamligi ko'pgina omillarga: o'qitishning ilmiyligi va sistemaliliga, tushunishining ongliligiga, o'quvchilarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga, musiqa darsliklarining sifatiga, musiqa o'qituvchisining mahoratiga bog'liqdir.

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishga barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyuushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok qilsa, bilish shuncha osonlashadi.

Ko'rgazmalilik adabiyot talimini o'qitishning muhim qonuniyati sanaladi. Chunki bu fanning tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab etadi. Tildagi mavhum tushunchalarning mohiyatini anglash bu prinsipdan keng foydalanishni taqazo etadi. O'quvchi ko'rish orqali narsa-hodisa, ularning tildagi ifodasini xususida aniq tushunchaga ega bo'ladi.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish, adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat.

Ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Hozirda ko'rgazmalilikning turlari xilma-xil: illyustrativ-badiiy hamda grafik /chizma/ materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofragment va o'quv filmlari, telefragment va televizion darslar v.b. Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldagi ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin.

ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI

Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'laniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi.

Boshqacha qilib aytganda, ta'limning ko'rgazmali vositalari adabiyot bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning adabiyot darsidan olgan bilimlari ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Og'zaki tushuntirish kuzatishni tashkil etishda, tasavvurlarni bir maromga solishda, ularni o'rganilayotgan adabiyot mavzusi g'oyasi bilan bog'lashda yordam beradi. Ko'rgazmali qurollar bo'lmasa, og'zaki izohning uncha foydasi bo'lmaydi.

Ko'rgazmali vosita sifatida plakatlar, slaydlar o'zbek tili darsida namoyish qilib ko'rsatilishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida turli xil texnika vositalari: kino va boshqa proektsion apparaturalar, tovush yozish apparatlari va boshqalardan foydalanib namoyish qilish keng tarqalmoqda.

Ko'rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa abstraktsiyani shakllantirish jarayonini engillashtiradi. Ko'rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish abstrakt qoidalarni o'zlashtirish jarayonini engillashtiradi, bilimlarning tushunarlik darajasini oshiradi. Masalan, va hokazolardan foydalaniladi.

Ko'rgazmali qurollar, ayniqsa, adabiyotdan olgan bilimlarini sistemaga solishda va boyitishda, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali quroldan adabiyot o'qituvchisining biror og'zaki bayonini yoki izohsiz foydalanishini tasavvur qilish qiyin. Ko'rgazmali

vosita hamisha o'qituvchining so'zi bilan o'zaro aloqada va muayyan munosabatda bo'ladi.

O'quv jarayonida ko'rgazmalilik tamoyilini qo'llashning muhimligini adabiyot darsi jarayonida o'rganilayotgan mavzuni hissiy idrok etishga, ularni «jonli mushohada» qilishga, bilish faoliyatida aniq va mavhum, hissiy, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga katta o'rin beruvchi nazariya nuqtai nazaridan tushintirish mumkin.

Adabiyot darslari ko'rgazma vositalari orqali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bu o'qitish metodlarining optimal birikmasini izlash zarurligidan dalolat beradi.

Ana shu aytilganlarga ko'ra bilishning o'qitish jarayonidagi yakka tarzda yo'lini hissiy hamda nazariy bilishning haqiqiy birligi sifatida rejalashtirish va tashkil etish kerak.

Adabiyot darsida o'qitishning ko'rgazmali metodlarini qo'llash optimallik mezoniga muvofiq kelishligi uchun adabiyot o'qituvchisi ularni tanlayotganda bir qator talablarga rioya qilishi kerak.

Ko'rgazmali metodlarni tanlashda ularning quyidagi didaktik vazifalarni ancha muvoffaqiyatli hal qilishi nazarda tutilishi shart:

- o'quvchilarda tushunchalarni idrok etishda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirishga yordam berishligi;
- faoliyat turlarini o'zlashtirishda diqqatni faollashtirish vositasi rolini bajarishligi;
- adabiyotdan olgan bilimlarini konkretlashtirishga imkon berishligi;
- o'rganilgan mavzularni plakatlarda, grafik chiziqlarda, rasmlarda va boshqalarda aniq qilib sistemalashtirish va klassifikatsiya qilish;
- tilga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish, samarali bilim olish uchun ko'rsatmalar yaratish metodlari rolini bajarishi;

- adabiyot fanidan o'quv materialining qanchalik o'zlashtirganligi haqida konkretlashtirilgan shaklda ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish darsning samaradorligini ta'minlaydi. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz ijodiy mehnat va tajribasidan kelib chiqib mavzuni turli metodlar asosida o'quvchilarga keng ko'lamda yetkaza oladi.

Hozirgi kunda fan-texnikaning intensiv holda rivojlanib borayotganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun imkon qadar maktablarda adabiyot darslarini ya'ni yozuvchi hayoti va badiiy asarlarini zamonaviy texnologiyalar vositasida darslarni tashkil eta olish va o'quvchilarning mavjud holatdan olgan taassurotlarini dars davomida qiyosiy yo'sinda tahlil qilsa, bevosita o'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga va munosabat bildirishiga imkon yaratadi.

Dars jarayonida ijodkorlarga daxldor foto albomlardan foydalanish, shuningdek musavvirning tasvirdagi san'atkorlik mahoratiga ham munosabat bildirsa, bevosita o'quvchida mavjud bo'lgan materialga qiziqish ortadi va jiddiy mulohaza yuritishga zamin tayyorlaydi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish bilan o'quvchilarning yozuvchi ijodi va uning badiiy asarlarini, adabiy-nazariy bilimlarini anglab, bilib olishlariga, adabiy nutqlarini o'stirishga erishish o'qituvchining oldiga turgan muhim vazifadir. Ko'rgazmalilik amalga oshirilgan darslarda o'quvchilarda faollik oshib borishi zarur. Agar ularda ana shu faollik bo'lmasa, masalan, tasviriy san'at asrlari ustida o'tkazilgan mashg'ulotda o'quvchilar faolligi sezilmasa. Bunday ko'rgazmalilikning ahamiyati ham bo'lmaydi.

Rivojlangan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yetakchi tendensiyalardan biri inson faoliyatining hamma sohalarining, shuningdek, ta'lim sohasining axborotlashuvi jarayonidir. Ta'limning axborotlashuvi axborotlarga qiziquvchilarning foydalanishlari maqsadida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va ularni tarqatish maqsadidagi metod jarayon va texnik-dastur vositalarini o'ziga

oladi. Bunda o'quvchilar bilimlarini muntazam texnik vosita asosida ularning o'zlashtirishini nazorat qilishga ham o'z ichiga olgan tizim shaklida o'rganadilar. (ya'ni elektron darsliklar, test yoki nazorat dasturlari, lug'atlar, o'quv materiallari bazasi, o'quv videofilmlar) ya'ni o'rganayotgan ob'ekt, jarayon va hodisalar madem asosida qurilgan va ularni ko'rsatadigan o'quv materiallari tizimli bo'laklarga bo'lib o'rganiladi. Ta'limning axborotlashuvi muammosini yechishga ilmiy yondashish o'quvchilarning kompleks bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy fikrlarni shakllantirish orqaqli professional vazifalarni samarali bajarish va axborotlash jamiyatida o'zini qulay hal etish eng yaqin kunlardagi maqsaddir.

Hozirgi davrda o'qituvchilar ixtiyorida ko'rgazmalilikning xilma-xil turlari badiiy rasm va grafik, radio eshittirish va gramplastinka yozuvlari, kinofragmentlar, o'quv va kinofilmlar, telefragmentlar, diafilmlar va boshqalar mavjud. Ular ko'rgazmalilikning ekran, eshituv, sintetik turiga kiradi.

An Amos Komenskiyning ta'kidlashicha " Mumkin bo'lgan hamma narsa tuyg'ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak'. Boshqa bir yirik pedagog K.D.Ushinskiy esa shunday yozadi "Bola xotirasida nimanidir o'rnab qolishini istagan pedagog imkoni boricha ko'proq sezgi organlari: ko'z, quloq, tovush, muskul harakatlari tuyg'usi, hatto ,mumkin bo'lsa, hidlash va ta'm bilishni ham eslab qolishda ishtirok etishi haqida qayg'urishi kerak".

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning yana bir turi xarita-sxemalar bo'lishi mumkin. Xususan, O'rxun-Yenisey obidalari, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Hamza singari shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganishda bunday xarita-sxemalardan foydalanish katta samara beradi. Masalan, Muqimiyning hayoti va ijodining o'rganishda adib borgan, asarlarida tasvirlangan shahar va qishloqlarni ko'rsatib beruvchi xarita-sxemalardan foydalanish mumkin. Bunda adibning shaxsiy hayoti, ayniqsa, "Sayyohatnoma"laridagi geografik nomlar asos vazifasini ado etadi. Qolaversa, bu yo'l bilan predmetlararo aloqaning o'ziga xos tomonlariga

ham ro'para kelinadiki, bu holat o'quvchilarning turli sohadagi bilimlarini bir yerga jamlash, ulardan amalda foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Aslida , umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik litseylarda o'rganiladigan har bir shoir va yozuvchining ijodi haqida shunday xarita-sxemalarni tuzish imkoniyati mavjud. Bunda har bir o'qituvchi o'ziga yaqin bo'lgan mahalliy materiallardan ham foydalansa, nur ustiga nur bo'lar edi.

X.Sh.Yandariyevning ko'rsatishicha, xarita-sxemalarni yaratishda "asarlarga chizilgan illyustratsiyalar, biografik materiallar, gazeta va jurnallardan qirqib olingan parchalar, nodir va nashr etilmagan rasmlar, maktublar" va boshqalardan foydalanish mumkin. "Karta-sxemalar tuzishning maqsadi, darslarni rang-barang qilish, uni mumkin bo'lgan darajada tig'izlashtirish, unga o'quvchilarning adabiy bilimlarni olishga qiziqishlarini va ijodiy faolliklarini oshirish, shunday qilib, ular mehnatining mazmunli va quvnoq bo'lishi uchun qo'shimcha materiallarni jalb qilishdan iborat".

Yana bir muhim holat mavjud: darsda , mashg'ulotlarda oq-qora tasvirdan ko'ra rangli rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarning turli yillarda nashr etilgan namunalari bu jihatdan bebaho manba va material bo'la oladi.

Yozuvchi va adiblarimizning turli davrlarda yaratilgan rangli rasmlari, portretlari, oilaviy yoki ijodiy davralardagi rangli fotosuratlari ham o'quvchilar qiziqishiga mos va munosib bo'ladi. Rus adabiyoti haqida gapirib, professor Ye.N.Kolokolsev shunday yozadi. "Portret janri o'quvchilarning tasavvurlarini oydinlashtirishga yordam beradi". Buning natijasida o'quvchilarda adib shaxsi haqidagi fikr-mulohazalari tiniqlashadi, ularning real insoniy qiyofasini aniqroq tasavvur etishadi.

Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra til hodisalarini o'rganish, kuzatish, sezishdan boshlanadi. Bola turli nutq tovushlari, so'zlar, gaplarni talaffuz etish, eshitish, yozish-ko'rish orqali sezadi. Kuzatish vositasida bolalar ongida til hodisalari

to'g'risida hissiy aniq tasavvur hosil bo'ladi. O'qituvchi bolalarni til hodisalarini sezishdan ularning mohiyatini aniqlashga, til hodisalarini tasavvur etishdan grammatik tushunchalarni atroflicha o'zlashtirishga qarab olib boradi.

Ko'rgazmali material muhim axborot manbai hamdir. Chunki o'quvchi darslik, o'qituvchining bayoni, gazeta va jurnallardan qanday axborot olsa, ko'rgazmali materiallardan ham shunday ma'lumot olishi mumkin.

Ona tili darslarida tabiiy yoki aniq buyumlardan (predmetlarning asl namunasi mas., anor, olma, bino maketi v.h), grafik materiallar (chizma, jadval kabi)dan; tasviriy san'at, musiqa, kino, televidenie kabi vositalardan foydalanadi. Ona tili mashg'ulotlarida televizor, epidiaskop, filmskop, magnitafon kabi texnik vositalardan foydalanish dars samaradorligiga juda katta ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Bu vositalar til hodisalarini tushunishga, ona tilidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, uni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy san'at namunalari, o'quv filmlari, diafilmlar va diapozitivlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Shuni nazarda tutib, ona tili o'qituvchisi til kabinetini shu vositalar bilan ta'minlash chorasini ko'rishi, ayniqsa, rasmi albomlar tashkil etishi, rasmi tarqatma materiallarini ko'paytirishi lozim.

Ko'rgazmali qurollardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo'ladi. O'quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida ko'proq reproduktiv xarakterdagi ko'rgazmali qurollardan foydalansak, yangi bilimlar berishda izlanuvchanlikni talab qiladigan ko'rgazmali qurollar ishga solinadi. Demak, ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali o'quvchilarning qayta xotiralashga asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuvchanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatini ham uyuushtirish mumkin.

Ko'rgazmali qurol me'yoridan qo'llanilishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrni asosiy masaladan chetlashishga olib keladi; o'quv materiali uchun ajratilgan vaqtning etishmasligiga sabab bo'ladi.

Ko'rgazmalilik tamoyilining mohiyati o'qituvchi o'rganilayotgan adabiyot

fani va undagi faoliyatlar xaqida o'quvchilarga aniq, ravshan tasavvur yaratishidir. Bunday tasavvurlar adabiyotni yanada chuqurroq tushunish uchun zamin hisoblanadi. SHuni aytib o'tish joizki, ko'rgazmalilik faqat bilimlar manbai rolini bajarib qolmaydi, balki o'quvchilarning rivojlanishlariga ham ta'sir qiladi. Ko'rgazmalilikni qo'llash tafakkur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi, konkret dan abstraktga o'tishni osonlashtiradi, idrok va diqqatni uyushtirishga ko'maklashadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili qo'yidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

- ko'rgazmalilik darsning maqsadi va vazifasiga muvofiq keladi;
- ko'rgazmalilik og'zaki tushuntirish bilan birga qo'shib olib boriladi;
- darsda ko'rgazmalilik haddan tashqari ko'p qo'llanilmaydi;
- o'qituvchi namoyish qilish o'rni, vaqti va davomiyligini to'g'ri aniqlaydi;
- ko'rgazmalilikni amalga oshirishda o'quvchilarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga asoslanadi.

O'qituvchi so'z yordamida o'quvchilarning ko'rgazmali ob'ektlarni kuzatishlari hamda ulardagi mavjud bilimlar asosida asarlarning idrok qilish jarayonida «ko'rish» mumkin bo'lmagan aloqalarini anglash va ifodalashga olib keladi. O'quvchilar asosiy ma'lumotlarni o'qituvchining og'zaki tushuntirishidan oladilar, ko'rgazmali vositalar esa ularni yo tasdiqlaydi, yo aniqlashtiradi.

Ko'rgazmali qurollar o'quvchi ongida yangi xissiy obrazlarni hosil qilish va mavjudlarini esga olish vositasidir. Adabiyot fani uchun qurshab turgan olamda mavjud bo'lgan ko'plab narsalar, xodisalar, ko'rgazmali o'quv qurollar va vositalariga kiritilmaydi.

Tabiatda mavjud narsa agar, birinchidan, o'z borlig'ining real sharoitlaridan ajratib olinsa (barg uzib gerbariy qilinsa, qush qafasga olinsa), ikkinchidan, o'quv jarayonida foydalanilsa, u ko'rgazmali qurolga aylanadi.

Adabiyot darsida o'qituvchining qo'l harakatlari, so'zlayotganda nutqi, yuz ifodasi va mimikasi, doskaga ilingan plakati, tarqatma materiallar, mashq yozuvi ham ko'rgazmali vositadir, ammo bular adabiyot darsining ko'rgazmaliligiga

yordamchi, ikkinchi darajali vositadir.

Darslar jarayonida asarlarning mazmuning hos rangli kartinalardan foydalanish asarining badiiy mazmunini aniq tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Ayniqsa kompyuter texnologiyalari, proektrlar, multimediya qurilmalari, CD, DVD disklardan foydalanib dasrda ko'rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishida ahamiyatlidir.

O'qitishning ko'rgazmaliligi tamoyilidan har tamonlama foydalanish o'quvchilar xissiy bilishining barcha jixatlariga raxbarlik qilishni, boshqarishni taqazo etadi.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA KO'RGAZMALILIK

Ta'limda ko'rsatmalilikdan foydalanish o'tiladigan mavzuni zoxiriy ifodalash va egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda uyunchoqlar, rasmlar, narsa buyumlarni bevosita kuzatish, ushlab va ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, qurilganlarni og'zaki ifodalash ehtiyoji esa o'quvchida boyitish, mustaqil mushohada ko'nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalar hosil bo'lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ko'rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon, magnitafon, diktafon, radio va televideniya ko'rsatuvlari, o'quv – o'rgatuv texnikasining so'ngi yutug'lari: kopmyuter, multimediya, kolidoskop, vodeoglas singarilardan unumli va samarali foydalanish o'quvchining ijodiy va nutqiy barkamolligini tanlash, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yunaltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o'quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchi shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san'ati kurtaklarini rivojlantirish, og'zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e'tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o'rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko'rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko'ra turlicha bo'ladi:

1. Leksik jadvallar.

2. Fonetik jadvallar.
3. Grammatik jadvallar.
4. Imloviy (orfografik) jadvallar.
5. Stilistik uslubiy jadvallar.
6. Aralash jadvallar (imlo va so'z yasalishi fonetika va so'z tarkibi)

Jadvallar yasalgan materialiga ko'ra ikki xil ko'rinishda bo'ladi.

1. Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog'oz yoki materialga ishlanadi)
2. Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)

Bundan tashqari hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda zamonaviy texnika vositalari bo'lmish:

1. Lingafondan foydalanish ya'ni eshituv a'zolari orqali to'g'ri talaffuzki, qiroat san'atini o'rganish;
2. Video kurs: o'zbek tilining talaffuz me'yorlari audio-video muloqotini o'rganish.
3. Kommunikativ savodxonlikni ta'minlashga qaratilgan kompyuter o'quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:
 - imloviy dasturlar (bunda o'quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv mashqlari disketlarga joylanadi);
 - fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo'yicha o'quv mashqlari disketlarga beriladi);
 - Grammatik dastur (morfoligiya va sintaksis o'quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);
 - Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o'quvchining uslubiyat bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, so'z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishlash uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma'rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.

- Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo'lib o'tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to'y, kelin salom, beshik to'yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro'z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylahtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o'quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so'z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo'lsa, 4- va 5- dasturlar o'quvchining yozma va og'zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganish jarayonini kodoskop, mul'timedia, "Videoglaz" kabi zamonaviy va zaruriy o'quv texnikasi bilan ta'minlanishi, ularning o'quv muassasalarida mavjud bo'lishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi fanini yutuqlari bilan boyitilmoqda, yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o'quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo'lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko'zga ko'rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

"Videoglaz" ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog'ozdagi tasvir kodoskopda ko'rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo'lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varrakchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni plyonkada bajarib kelgan o'quvchi o'z ijodiy ishini ekranga tushirib, o'rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o'z fikri va yaratgan

yangiligini himoya qilishi, to'g'ri yoki noto'g'riligi aniq bir xulosa va echimga kelishi mumkin.

Ta'lim texnologiyasida "portlash" effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu- "Videoglaz". Uning ishlatilishi ko'lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bol'ib, o'qituvchidan katta ijodiy tajriba va pedagogic mahoratini talab qiladi.

"Videoglaz" ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga uxshash ko'z vazifasini o'taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko'chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Bu ta'lim jarayonida tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o'z iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi omilga aylantiradi.

MULTIMEDIYA – KO’RGAZMALILIK ASOSI

Hozirgi kunda multimedia, multimedia darslar, multimedia maxsulotlar degan iboralar ko’p ishlatilmoqda. Ba’zi o’qituvchilar matn muxarriri yoki grafik muxarrir yordamida tayyorlanib kompyuter yordamida o’tkazilgan dars multimedia darsi degan noto’g’ri tushunchaga egadirlar.



Xo’sh multimedia o’zi nima?


Multimedia – rasm va matnli axborotni tovushli va xarakatdagi shakllardan iborat axborot bilan birlashtirish texnologiyasidir. Bular taqdimotlar, elektron darsliklar, filmlar va boshqalardir.

Multimedia-elektron versiyalari asosida har bir fandan dars o’tilganda pedagog ko’proq quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

1. Multimediada musiqa, rasm, tasvir va filmlardan foydalanish;
2. Tasvirlarning mohiyati jonli nutq vositasida yoritilishi;
3. Multimediada barcha chizma va jadvallar harakatli holatda nuqtadan ekranga uzatiladi;
4. Ko’rgazmalilik multimedia asosini tashkil etadi.

Bunday darslarni qaysi dasturda yaratgan osonroq? Profesionallikni talab qilmaydi, xar bir fan o’qituvchisi uchun qulay va tushunarli bo’lgan bunday dasturlardan biri PowerPoint dasturidir. Biz quyida ushbu dasturda tayyorlangan Cho’lponning “Go’zal” che’riga ishlangan illyustatsiyon taqdimotni ilova qilmoqchimiz.





XULOSA

Bu aytilganlardan ko'rgazmalilik qancha ko'p qo'llanilsa, shuncha yaxshi bo'lar ekan, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Chunki ko'rgazmalilikni optimal qo'llash, bu undan maqsadga muvofiq foydalanish degan ma'noni bildiradi. SHuning uchun ham o'qituvchi dasturda va metodik qo'llanmada keltiriladigan namoyish qilishning tavsiya ro'yxatidan, birinchi navbatda, darsning asosiy vazifasini hal qilishga, o'rganiladigan mavzuning asosiy muhim masalalarini o'zlashtirishga bevosita yo'llanganlarini tanlab olishi kerak. Ko'rgazmali vositaga darsning davomida asosiy e'tibor beriladi, u puxtaroq tahlil etiladi, asosiy xulosalar ular yuzasidan qilinadi. Bir mavzudagi ikkita ko'rgazmali vositadan qo'yilgan vazifani yaxshiroq va kamroq vaqt sarflab hal qiladiganini tanlash kerak.

SHuni unutmaslik kerakki, namoyish hajmini oshirib yuborish vaqtni ko'p sarflashga olib kelibgina qolmay, balki o'quvchilar etborini o'rganilayotgan materialning moxiyatidan ham chalg'itadi.

Ko'rgazmali metodlarni tanlashda tegishli sinfnig xususiyati, sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar tafakkurlarining ustun tipi- og'zaki- mantiqiy yoki ko'rgazmali- obrazli ekanligi hisobga olinadi.

O'quvchilar qo'yilgan savollarga javob kutar ekanlar, ko'rgazmali axborot ustida faol fikr yuritadilar, ko'tarilgan muammolarni hal qilish yo'lini o'zlari qidiradilar va shuning uchun ham o'quv materialini faol o'zlashtiradilar. Ko'rgazmali qurollarni maqsadsiz namoyish qilaverish adabiyot darslarida juda ko'p vaqtni oladi va hatto darsning umumiy maqsadiga erishish nuqtai nazaridan zararli bo'lib ham chiqadi.

Obrazlar yoki syujetlarini ifodalovchi suratlar, kartinalar ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqtiradi.

Amalda ko'proq harakatlanuvchi, masalan, dirijyorlik, musiqa o'lchovini taktilash, chalib ko'rsatish, raqs, o'yin, kuy harakatini, registir va ritmik sur'atini doskaga grafik chiziqlarda ifodalash kabi ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish bilan o'quvchilarni yozuvchi ijodi va uning badiiy asarlarini, adabiy-nazariy bilimlarini anglab, bilib olishlariga, adabiy-madaniy nutqlarini o'stirishga erishish o'qituvchining oldida turgan muhim vazifalardir. Bu vazifalar turli holat, vaziyatda turli xarakterda amalga oshiriladi.

Ko'rgazmalilik amalga oshirilgan darsdan o'quvchilarda faollik oshib borishi zarur. Agar ularda yana shu faollik bo'lmasa, masalan, tasviriy san'at asarlari ustida o'tkazilgan mashg'ulotda o'quvchilar faolligi sezilmasa, bunday ko'rgazmalilikning ahamiyati ham bo'lmaydi.

Maktabda ko'rgazma vositalaridan foydalanishda o'quvchilarga beriladigan topshiriq baholash xarakterida ham bo'ladi. Darsliklarda asarlarga ishlangan rasmlar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalaydi, ularning tasviriy san'at asarlarini idrok etishlari va uni baholashni o'rganishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Rasmlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar badiiy asarni g'oyaviy axloqiy jihatdan tushunib oladilar, uni baholash ko'nikmasini, rassomlar ishidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash malakasini ham egallab oladilar.

Maktabda ayniqsa, yuqori sinflarda asar mazmunidan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollar yasash o'quvchilarda ijodkorlik, o'zaro hamkorlik o'rganilayotgan yozuvchi hayoti va asarlariga muhabbat hissini oshirib boradi.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobidan. Toshkent -1998 yil. 4-19 betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobidan. Toshkent- 1998 yil. 20-25 betlar.
3. I.A.Karimov. Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi. “Ma‘naviy yuksalish yo‘lida” kitobidan. Toshkent. “O‘zbekiston” 1998 yil 5-10 betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. “Ta‘lim taraqqiyoti” axborotnomasining 1-maxsus soni. “Sharq” 1999 yil 3-5 betlar.
5. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, “ Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. 1993 yil 3-4 qo‘shma soni. 27-30 betlar.
6. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida, o‘qitish metodlari. Toshkent. “ O‘qituvchi” 1990 yil.
7. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta‘limni tashkil qilish. Toshkent. “O‘qituvchi” 1981 yil.
8. A.G‘ulomov. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. Toshkent. “O‘qituvchi” 1987 yil.
9. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. “O‘qituvchi” 1992 yil.
10. X.Q.Qurbonova. O‘lquvchilarni idiy izlanishga o‘rgatish.// Xalq ta‘limi j-2003. 3-son 62-63-b.
11. M.Saidov. Muammoli ko‘rgazmalardan foydalanish. “ Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. 1993 yil. 5-6 qo‘shma soni. 13-14 betlar.

Foydalanilgan internet sahifalar

www.ziyonet.iz

www.ziyo.uz

www.doc.uz

www.e-adabioyt.uz